

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**





MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, texnika fanlari doktori, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, iqtisod fanlari nomzodi (PhD ekvivalenti), dotsent.
3. G'ulomov Saidahrar Saidaxmedovich – O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisod fanlari doktori, professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, texnika fanlari doktori.
5. Sultonov Mansur Qilichovich – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki bosh direktori, texnika fanlari doktori, dotsent.
6. Muxamediyeva Dildora Kabilovna - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori, texnika fanlari doktori
7. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisod fanlari doktori.
8. Popkova Yelena Gennadyevna – Rossiya Federatsiyasi "Ilmiy aloqalar instituti" prezidenti, iqtisod fanlari doktori, professor.
9. Doktor Go Khang Wen – Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori, PhD.
10. Wang Cheng – Xitoy Xalq Respublikasidagi "Xebey mexanika va elektrotexnika texnologiyalari instituti" dotsenti, fan nomzodi.
11. Yo'ldoshev Nuritdin Qurbonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
12. Akramov Tohir Abdiraxmonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
13. Temirov Abdulaziz Alimjonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
14. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Alfraganus universiteti Xalqaro ilmiy jurnallar va reytinglar kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi.
15. Xotamov Ibodullo Sa'dulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari nomzodi.
16. Kadirova Istora Bobirovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, falsafa fanlari doktori.
17. To'raqulov Otabek Xolmizrayevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, texnika fanlari falsafa doktori.
18. G'iyosidinov Boburbek Baxtiyorovich – Toshkent davlat transport universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, falsafa fanlari doktori.

MUNDARIJA

Yo'ldoshev N.Q.	Boshqaruv qarorlarini texnik-iqtisodiy asoslash zarurligi	4
Anarkulova G. M.	Iqtisodiy yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	10
Kazakov A.N., Khakberdiev M.R., Khamitov N.A., Turgunov Sh.Sh.,	Study of stress-strain state of rocks	20
Abdulloyev A.J., Qosimova H.J.	Mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari	28
Tursunova M.R.	O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi jarayonida olib borilayotgan islohotlar <i>yyt 338</i>	41
Zoirov S.Z.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari	50
Sodiqov M.A.	Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	58
Raximqoriyeva N.A.	Motivating employees' work in enterprises	71
Navruz-zoda L.B.	Kichik biznesda innovatsion rivojlanish: xorijiy tajriba asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari	89
Baxanurov O.O.	Iqtisodiyot va siyosat o'zaro ta'sirida mintaqaviy biznes istisnolari: siyosiy-iqtisodiy tahlil	95
Qodirov S.Q.	Globalizatsiya sharoitida marketing va menejment uyg'unligi: xalqaro tajriba va o'zbekiston uchun saboqlar	104
Xotamov I.S.	Sanoat korxonalarida "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmlari	107
Gofurov D.B.	Bank-moliya tizimida raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va xavflar	122
Жўраев И.И.	Тижорат банклари ресурс салоҳиятини оширишда депозит сиёсатининг роли	134
Абдураимова Н.Р.	Реструктуризация в сфере обеспечения занятости в Республике Узбекистан: анализ институциональ-ных изменений и их влияние на рынок труда	147
Фарходова Ш.Ш.	Сокращение неравенства доходов и бедности в Узбекистане	163
Ахмаджонов А.К.	Халқаро аудит стандартларига мувофиқ аудиторлик текширувларини яқунлаш методологиясини такомиллаштириш	168

MINTAQAVIY SANOATLASHUV JARAYONLARINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich

Buxoro davlat universiteti, i.f.d., (DSc), professor buxdu.uz

E-mail: a.j.abdulloyev@gmail.com,

ORCID: 0000-0002-1701-7429

Qosimova Hilola Jamshedovna

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya. Maqolada barqaror rivojlanish strategiyasi orqali mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishning ilg'or xorij amaliyoti qiyosiy taqqoslanib, undan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, "yashil" iqtisodiyot, strategiya, barqaror rivojlanish strategiyasi, sanoat, sanoatlashuv, mintaqaviy sanoatlashuv, ekologik standartlar.

Annotation. The article presents a comparative analysis of advanced foreign practices in implementing regional industrialization through sustainable development strategies, and identifies opportunities for their creative application in the context of our country.

Keywords: sustainable development, economic stability, social stability, environmental stability, "green" economy, strategy, sustainable development strategy, industry, industrialization, regional industrialization, environmental standards.

Аннотация. В статье приведён сравнительный анализ передового зарубежного опыта реализации региональной индустриализации через стратегию устойчивого развития, а также выявлены возможности его творческого применения в практике нашей страны.

Ключевые слова: устойчивое развитие, экономическая стабильность, социальная стабильность, экологическая стабильность, «зелёная» экономика, стратегия, стратегия устойчивого развития, промышленность, индустриализация, региональная индустриализация, экологические стандарты.

Kirish

Jahon xo'jaligida globallashuv jarayonlarining tobora avj olib borishi sharoitida mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqarorlashtirishda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratilishi talab etiladi. Bu orqali mamlakatning global qo'shilgan qiymat zanjiridagi

ishtiroki kengayib, xalqaro iste'mol bozorida milliy "Brend"ning shakllanishi va nufuzli mamlakatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Ushbu vaziyatni inobatga olib, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan davlatning maqsadli chora-tadbirlari tizimida ham aynan ushbu yo'nalish bo'yicha qator

maqsad va vazifalar belgilab olingan. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, barcha iqtisodiy va sanoat zonalarida zarur infratuzilmadan (yo‘l, elektr energiyasi, suv va oqava tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish” kabi ustuvor vazifalarning belgilanganligi yuqorida bildirib o‘tilgan fikrlarni asoslashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zaruriyatini oshiradi.

Mavzuning dolzarbligi

So‘nggi yillarda mamlakatda kichik iqtisodiy va sanoat zonalarini tashkil etish asosida respublika hududlarining sanoatni rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib, bu turdagi korxonalar faoliyatini kengaytirish, ularni zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan qurollantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion loyihlarni joriy etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirilishida moliyaviy korxonalarining moliyaviy resurslari yetishmsligi bilan birgalikda, mamlakatda sanoat korxonalariga moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi

tashkilotlar tomonidan taklif etilayotgan kredit, lizing kabi xizmatlardan foydalanish narxinining qimmatligi (ya‘ni foiz stavkalarining balandligi) muammosi mavjud ekanligi ko‘p sonli ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘tkazilgan turli so‘rovnomalarda o‘z isbotini topgan. Bu esa mahalliy rezidentlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlariga xalqaro darajada tan olinadigan minimal standart va talablarni joriy etish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirilishiga ma‘lum bir darajada to‘sqinlik qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasining mohiyati, uning ilmiy-nazariy konseptual asoslari, uni amal qilish tamoyillari, amalga oshirish dastaklari, hamda, samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari G. Petrakos, D. Puga, L.A. Rissi, M. Amiti, D.R. Davis, R. Dobrinskiy, G. Ellison kabi uzoq xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot usullari


Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar


Mamlakatda sanoat ishlab chiqarishida kichik sanoat korxonalarining tutgan o‘rini baholash

maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 2014–2023-yillarda mamlakat ishlab chiqarish sanoatida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar soni 2,7 martaga ortib, 34,7 mingdan qariyb 93,8 mingtaga yetgan bo'lsa, Shundan kichik ishlab chiqarish sanoati korxonalari ko'rsatkichi 34,2 mingdan qariyb 93,1 mingtaga yetganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, tahlil etilayotgan

korxonalari tarkibida kichik sanoat korxonalarining ulushi 2014-yilda 98,6 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 99,3 foizga yetgan. Shuningdek, so'nggi 10 yil mobaynida kichik ishlab chiqarish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish sanoatida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonidagi o'rta hisobdagi ulushi 99,1 foizga teng bo'lganligi aniqlandi (1-rasmga qarang).




davrda jami ishlab chiqarish sanoti



1-rasm. O'zbekistonda ishlab chiqarish sanoatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar tahliliga asoslangan holda mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va uni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari samaradorligini oshirishda kichik sanoat korxonalari faoliyatini kengaytirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Iqtisodiy fanda so'nggi yillarda kichik sanoat korxonalari kooperativlarini tashkil etish asosida mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va uni rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga global iste'mol bozorida milliy brendlarni shakllantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkinligi ko'plab

ilmiy tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Jumladan, xorijlik T. Mazzarol, M. Fletcher, E. Okoli, D. Kumalasari, P. Ammirato, V.V. Gabunov, N.Ye. Yegorova, V.P. Solodkov, A.Y. Trostkovskiy kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish, jumladan, turli mamlakat hududlari sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda kichik sanoat korxonalari salohiyatidan kooperativlarni shakllantirish orqali samarali foydalanish mumkinligi bilan birgalikda, mamlakatning iste'molga tayyor, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar eksporti hajmini oshirishga erishilishi ilmiy jihatdan isbotlangan.



2-rasm. Kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlarini tashkil etish mexanizmi

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillarga asoslangan holda keyingi yillarda mamlakatimiz mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda kichik sanoat korxonalari o'rtasida integratsion munosabatlarni kuchaytirish asosida innovatsion yo'nalishdagi kichik sanoat kooperativlari faoliyatini tashkil etish orqali mahsulot ishlab chiqarishning to'liq zanjirini o'zlashtirishga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Taklif etilayotgan kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlarini tashkil etish mexanizmi 2-rasmda keltirib o'tildi.

Kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlari faoliyatini tashkil etishda quyidagi subyektlar ishtirok etadilar:

– innovatsion markazlar – so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" doirasida respublikaning turli hududlarida innovatsion rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Bu turdagi markazlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ular kichik innovatsion ishlab chiqarish sanoati korxonalari kooperativlari innovatsion faolligini oshirish uchun xizmat ko'rsatishlari va ular talabiga mos keladigan innovatsion loyihalari,

ilmiy-texnik ishlanmalarni ishlab chiqishlari kerak bo'ladi. Bu mahalliy sanoat korxonalari tomonidan innovatsiyalarni o'zlashtirish samaradorligini ortishi hisobiga yuqori daromadga erishish mumkin bo'ladi;

– davlat va mahalliy boshqaruv organlari – uch yoqlama faoliyat yuritgan holda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun kerakli shart sharoitlarni yaratishi zarur bo'ladi. Bunda tashkil etilayotgan kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperativlariga kichik sanoat korxonalarining integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlashi davlat va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining bir ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi tarafdin innovatsion markazlar tomonidan tashkil etilgan kichik innovatsion sanoat kooperativlari uchun ishlab chiqilayotgan innovatsion loyiha hamda ilmiy-texnik ishlanmalar uchun rag'bat va preferensiyalar ajratishi kerak bo'ladi. Shu bilan birgalikda, hududiy kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperativlari faoliyati davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan mutazam qo'llab-quvvatlanishi kerak bo'ladi;

– potensial investorlar – bunda kichik innovatsion sanoat kooperativlari faoliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug'ilgan taqdirda

mahalliy va xorijiy investorlarning mablag'laridan keng foydalanish nazarda tutiladi. Investorlar uchun mamlakat kichik iqtisodiy va sanoat zonalarida yaratilgan imtiyozlar tijorat banklari moliyaviy xizmatlaridan foydalanishdan ko'ra arzonroq va samaraliroq hisoblanadi;

– kichik ishlab chiqarish sanoati korxonalari – kichik sanoat korxonalari taklif etilayotgan kichik innovatsion sanoat kooperativlarining muhim tarkibiy komponenti hisoblanib, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini o'zlashtirish va ixtisoslashuv jarayonlarida muntazam ravishda bevosita ishtirok etuvchi xo'jalik subyektlari hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan subyektlar o'rtasida o'zaro manfaatli bo'lgan kelishuv doirasida respublika hududlarida kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperativlarini tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Taklif etilayotgan kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlarini tashkil etish mexanizmi mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan birglikda, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning bozor iqtisodiyoti elementlari bilan to'yintirilgan dastaklarini joriy etish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan mexanizm asosida kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlarini hududlarning tabiiy va

mehnat resurslari salohiyatiga asoslanilishi, jumladan, kichik innovatsion sanoat korxonalari kooperatsiyasini tashkil etishda ishtirok etayotgan korxonalarning nisbiy ustunliklarini inobatga olib, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini to'liq o'zlashtirish orqali sohani rivojlantirish asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuv imkoniyatlarini yaratishga turtki beradigan yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan mexanizm asosida kichik sanoat korxonalari kooperativlarini rivojlantirilishi resurslarning tarmoqlararo va respublika hududlari kesimida o'zaro mutanosiblikda taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, bu turdagi kooperativlar faoliyatida innovatsion rivojlanishga ustuvorlik qaratilishi natijasida sanoat ishlab chiqarishining zamonaviy infratuzilmasi respublikaning turli iqtisodiy hududlarida muvozanatlashgan rivojlanish trendiga erishadi. Shuningdek, kichik innovatsion sanoat ishlab chiqarishi korxonalari kooperativlari faoliyatini rivojlantirish asosida mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirilishi natijada quyidagi ijobiy tendensiyalarga erishish mumkin bo'ladi:

– ishlab chiqarish sanoatida o'sish "nuqta"lari aniqlanishi natijasida hududlarning "drayver" sohalari namoyon bo'ladi;

– ishlab chiqarish sanoati korxonalari tomonidan yangi turdagi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortadi;

– milliy ishlab chiqarish sanoati tarmog‘ining global raqobatbardoshlik darajasi ortib, xalqaro bozorlarga kirib borish imkoniyati kengayadi. Bu esa mamlakatning eksport salohiyati ortishiga xizmat qiladi;

– yuqori daromadli yangi ish o‘rinlari yaratilishi hisobiga aholi turmush farovonligi ortadi;

– korxonalarning moliyaviy barqarorligi ta‘minlanib, operatsion samaradorligi ortadi;

– ishlab chiqarish sanoati korxonalarining innovatsion faolligi ortib, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari qisqarib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati takomillashib, uning narxi arzonlashadi va h.k.

Shu bilan birgalikda, respublika viloyatlarining mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirilishini ta‘minlashda barqaror rivojlanishning “CSR (Corporate Social Responsibility – korporativ ijtimoiy mas’uliyat)”, RBC (Responsible Business Conduct – mas’uliyatli biznes faoliyati)”, “CSV (Creating Shared Value – umumiy qiymat yaratish)”, “ESG (Environmental, Social and Governance – ekologik, ijtimoiy va davlat)” hamda “SDG (Sustainable Development Goals – barqaror rivojlanish maqsadlari)” tamoyillariga asoslanish talab etiladi. Bunda barqaror rivojlanishning har bir tamoyillari kesimida ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini (1-jadvalga qarang) inobatga olib, respublika hududlarida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

1-jadval

Barqaror rivojlanish tamoyillarining qiyosiy tahlili

Tamoyillar	Ustunliklari	Kamchiliklari
CSR (korporativ ijtimoiy mas’uliyat)	– Ixtiyoriy ijtimoiy tashabbuslar; – Jamiyatda kompaniya imijini oshiradi	– Chuqur biznes strategiyasi emas; – Moliyaviy jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin
RBC (mas’uliyatli biznes faoliyati)	– Xalqaro standartlarga javob berish; – Investorlar va davlat tomonidan tan olinadi	– Regulyatsiya va talablar ko‘payishi; – Ba’zi kompaniyalar uchun xarajatlar yuqori
CSV (umumiy qiymat yaratish)	– Ijtimoiy muammolarni biznes modeliga aylantirish; – Uzoq muddatli daromad keltiradi	– Butun biznes modelini o‘zgartirish talab etiladi; – Hamma sohalar uchun mos emas
ESG (ekologik, ijtimoiy va davlat)	– Investorlar uchun muhim indikator;	– ESG hisobotlarini tayyorlash xarajatlil;

	– Kompaniyaning xavflarni boshqarish imkoniyati	– Barcha kompaniyalar uchun standart emas
SDG (barqaror rivojlanish maqsadlar)	– Davlat va biznesning hamkorlikda rivojlanishi; – Uzoq muddatli barqarorlik	– Barcha kompaniyalar uchun moslashuvchan emas; – Tasdiqlangan mezonlarning yetishmasligi

Shu bilan birgalikda, barqaror rivojlanish tamoyillarining biznes strategiyasi, investorlar, sanoatlashuvni amalga oshirishdagi davlat siyosati va qonuniy tartiblar hamda ekologik bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini tahlil qilish (2-jadvalga qarang) asosida har bir tamoyilni amalda qo'llashning ustuvor yo'nalishlari quyidagi tartibda bo'lishi aniqlandi:

2-jadval

Barqaror rivojlanish tamoyillarini amal qilish xususiyatlari tahlili

Tamoyillar	Korxonaning biznes strategiyasiga ta'siri	Investorlar uchun ahamiyati	Davlat siyosati va qonuniy tartibga solishdagi ahamiyati	Ekologik barqarorlik sohasidagi ahamiyati
CSR (korporativ ijtimoiy mas'uliyat)	Loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini oshirishda	Korxona imidjini yaxshilaydi, investorlar uchun muhim emas	Ixtiyoriy ahamiyatga ega	Hayriya va ijtimoiy tashabbuslar
RBC (mas'uliyatli biznes faoliyati)	Xalqaro standartlarga integratsiyani kuchaytirishda	Investorlar uchun ustuvor ahamiyatga ega	Davlat tomonidan tartibga solishda	Xalqaro darajadagi ekologik standartlarni joriy qilish
CSV (umumiy qiymat yaratish)	Biznes imkoniyatlari orqali ijtimoiy muammolarni hal etishda	Investorlar uchun kelajakdagi daromad manbai sifatida baholanadi	Ixtiyoriy ahamiyatga ega	Ekologik muammolarni biznes imkoniyatlari orqali hal etish
ESG (ekologik, ijtimoiy va davlat)	Risklarni boshqarish orqali barqarorlikni ta'minlashda	Investorlar uchun ustuvor ahamiyatga ega	Davlat tomonidan tartibga solishda	Aniq mezonlar orqali ekologik mas'uliyatni aniqlan

SDG (barqaror rivojlanish maqsadlar)	Davlat va xususiy sheriklik mexanizmini ishlab chiqishda	Davlat va xalqaro hamkorlik uchun muhim	Davlat va xususiy sheriklikni rivojlantirishda	Global ekologik maqsadlarga erishishdagi hamkorlik
---	--	---	--	--

– “CSR (Corporate Social Responsibility – korporativ ijtimoiy mas’uliyat)” tamoyili – sanoat korxonalari joylashgan hudud aholisi oldidagi ijtimoiy mas’uliyatlarini oshirishda;

– “RBC (Responsible Business Conduct – mas’uliyatli biznes faoliyati)” tamoyili – sanoatlashuvni rivojlantirish bo’yicha milliy va xalqaro standartlar tizimi bo’yicha o’rnatilgan talablarga mos keladigan hududlardagi sanoat ishlab chiqarishi faoliyatini tashkil etilishida;

– “CSV (Creating Shared Value – umumiy qiymat yaratish)” tamoyili – mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish hisobiga hududda aholi uchun barqaror daromad manbaini shakllantirishda;

– “ESG (Environmental, Social and Governance – ekologik, ijtimoiy va davlat)” tamoyili – respublika viloyatlari kesimida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish bo’yicha investitsion jozibadorlikni oshirish hisobiga investorlarni keng jalb qilishda;

– “SDG (Sustainable Development Goals – barqaror rivojlanish maqsadlari)” tamoyili – davlat va xususiy sektor o’rtasida davlat-xususiy sheriklikning keng

qamrovli mexanizmini shakllantirishda.

Demak, o’tkazilgan tahlillar yuqorida keltirilgan barqaror rivojlanish tamoyillarini quyidagi yo’nlashlarda qo’llash samarali bo’lishini ko’rsatdi:

birinchi, kichik va o’rta biznesni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarda “CSV” va “CSR” tamoyillaridan;

ikkinchi, mamlakatning yirik va strategik ahamiyat kasb etuvchi sanoat korxonalarini qo’llab-quvvatlashda “ESG” hamda “RBC” tamoyillaridan;

uchinchi, hududlarning investitsion jazibadorligini oshirishda “ESG” va “CSV” tamoyillaridan;

to’rtinchi, “SDG” tamoyili asosida davlat va xususiy sheriklikning amal qilish mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, keyingi yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlarida ishlab chiqarish sanoati korxonalari faoliyatida nufuzli xalqaro brendlar bilan milliy brendlar o’rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda “Made in Uzbekistan” yorlig’i ostida milliy sanoat ishlab chiqarishi korxonalari faoliyatini

global qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

“Made in Uzbekistan” yorlig'i ostida ishlab chiqarish sanoatining quyidagi 1-jadvalda keltirib o'tilgan yo'nalishlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni

sotish ko'rsatkichlari yuqori va o'rta darajadagi barqarorlik reytingiga ega bo'lgan mahalliy korxonalar faoliyatini rivojlanishi uchun davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi.

3-jadval

“Made in Uzbekistan” yorlig'i ostida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirish yo'nalishlari

T/r	Sanoat yo'nalishlari	Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari
1.	To'qimachilik sanoati	To'qimachilik, trikotaj va boshqa tayyor kiyimlar, gilamlar
2.	Charm-poyabzal sanoati	Poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari
3.	Ipakchilik sanoati	Ipakdan tayyor matolar, kiyimlar, gilamlar va boshqa buyumlar
4.	Oziq-ovqat sanoati	Quritilgan, qadoqlangan va konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari, spirtsiz ichimliklar (<i>energetik ichimliklardan tashqari</i>), qadoqlangan go'sht va kolbasa mahsulotlari, qandolat mahsulotlari
5.	Qurilish materiallari sanoati	Bo'yoqlar, kafel, santexnika mahsulotlari
6.	Elektrotexnika sanoati	Elektrotexnika mahsulotlari
7.	Farmasevtika sanoati	Dori-darmonlar, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, biologik faol qo'shimchalar
8.	Zargarlik sanoati	Tayyor zargarlik buyumlari
9.	Mebelchilik sanoati	Tayyor mebellar
10.	Kimyo, parfyumeriya va kosmetika sanoati	Kimyo vositalari, shu jumladan kosmetika, parfyumeriya, shampun, sovun
11.	Avtomobil sanoati	Avtotransport vositalari va butlovchi qismlar
12.	Metallurgiya sanoati	Metall mahsulotlar va buyumlar

Mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlarini xalqaro brendlar bilan “Made in Uzbekistan” yorlig'i ostida integratsiyalash sosida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning global qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini kengaytirishda 3-jadvalda taklif etilgan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish yo'nalishlarini tegishli yuqori malakali mutaxassis va kadrlarga bo'lgan

talablarini qondirish kerak bo'ladi. Bunda Vazirlar Mahkmsi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bilan birgalikda mahalliy oliy o'quv yurtlari, jumladan, xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalarida “Dizayn”, “Moda”, “Standartlashtirish”, “Innovatsiyalar”, “Texnologiya”, “Menejment” va “Marketing” ta'lim yo'nalishlarida mahalliy

mutaxassislarni tayyorlash kerak bo'ladi. Shu bilan birgalikda, bu turdagi dasturlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida 4-jadvalda keltirilgan tartibda xorijiy mutaxassislarni mahalliy korxonalar faoliyatiga 3 yilgacha bo'lgan muddatga jalb qilish asosida ularida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlar asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish imkoniyatiga erishiladi.

Quyidagi 4-jadvalda keltirib o'tilgan global darajada yetakchi

hisoblangan korxona va tashkilotlarda faoliyat yurituvchi soha mutaxassislarni mahalliy ishlab chiqarish sanoati korxonalari faoliyatiga jalb qilish uchun byudjetdan tashqari maqsadli fondlar, masalan, Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi, Savdoga ko'maklashish jamg'armasi hamda qonunchilik bilan cheklanmagan boshqa turli homiylik mablag'lari hisobidan 25,0 mln. AQSh dollari ekvivalentiga teng bo'lgan moliyaviy resurslarni ajratish maqsadga muvofiq hisoblana

4-jadval

Mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish diorasi sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda "Made in Uzbekistan" yorlig'i ostida xalqaro brendlar bilan integratsion munosabatlarga kirishishda korxonalarni yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talablari

T/r	Sanoat yo'nalishlari	Talab yuqori bo'lgan mutaxassislar
1.	To'qimachilik sanoati	Modeler-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
2.	Charm-poyabzal sanoati	Modeler-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
3.	Ipakchilik sanoati	Pillachilik mutaxassisi, grenaj mutaxassisi, texnolog
4.	Oziq-ovqat sanoati	Muhandis (texnolog), marketolog
5.	Qurilish materiallari sanoati	Geodezist, texnolog
6.	Elektrotexnika sanoati	Modeler-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
7.	Farmasevtika sanoati	Kimyo-texnolog, marketolog, biofarmakolog
8.	Zargarlik sanoati	Modeler-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
9.	Mebelchilik sanoati	Modeler-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
10.	Kimyo, parfyumeriya va kosmetika sanoati	Kimyo-texnolog, marketolog
11.	Avtomobil sanoati	Muhandis (texnolog), marketolog
12.	Metallurgiya sanoati	Muhandis (texnolog), marketolog

Shu bilan birlikda, mintaqaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va unda raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotiga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq, hisoblanadi. Jahon

amaliyoti tahliliga ko'ra, ishlab chiqarish sanoati korxonalarida bu turdagi birgina "EMS" texnologiyasidan foydalanilishi hisobiga ishlab chiqarish harajatlari tarkibida yengil sanoat korxonalarida 27,8 foizgacha, og'ir

sanoat korxonalarida esa 45,6 foizgacha elektr energiyasi va boshqa turdagi yoqilg'i xarajatlarini qisqartirishga erishiladi. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu holat keyingi yillarda mamlakatimizda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlari samaradorligini oshirish orqali global qo'shilgan qiymat zanjirida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlariga avtomatlashtirish va raqmlashtirish texnologiyalarini joriy etish kerak bo'ladi. Bunda jahondagi yetakchi brend korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan "EMS", "ERP", "CRM", "CERM" kabi axborot kommunikatsion texnologiyalar industriyasi mahsulotlarini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu turdagi texnologiyalarni ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish uchun kamida 1,0 mln. AQSh dollar ekvivalentiga teng

bo'lgan miqdorda grantlar ajratish talab etiladi.

Mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda hududlar sanoat ishlab chiqarishini "Made in Uzbekistan" yorlig'i ostida xalqaro brend korxonalar bilan integratsion munosabatlarga kirishishda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan barcha turdagi homashyolar, jumladan, mahsulotni to'liq ishlab chiqarish zanjirini kamida 60,0 foizini mahalliyashtirish sharti bilan bu turdagi korxonalarni bojxona bojidan ozod qilish kerak bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, yuqorida keltirib o'tilgan takliflar asosida respublika hududlari kesimida barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqilishi uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni rivojlantirish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Thomas, D (2023) *Annual Report on the U.S. Manufacturing Economy: 2023. (National Institute of Standards and Technology, Gaithersburg, MD), NIST Advanced Manufacturing Series 600-13-upd1. – 64 p.*
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni maxalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatni yanada oshirish to'g'risida"gi PQ-4426-son qarori, 24.08.2019 y. <https://lex.uz/ru/docs/4486600>
3. Van Zanten J. A., & Van Tulder R. *Multinational enterprises and the Sustainable Development Goals: An institutional approach to corporate engagement. Journal of International Business Policy, Vol. 1 (3-4), 2018. – pp. 208–233*
4. Tsolakis N., Niedenzu D., Simonetto M., Dora M., & Kumar M. *Supply network design to address United Nations sustainable development goals: A case study of block chain implementation in Thai fish industry. Journal of Business Research, Vol. 131, 2021. – pp. 495–519*

5. Yin X., Chen J., & Li J. Rural innovation system: Revitalize the countryside for a sustainable development. *Journal of Rural Studies*, Vol. 93, 2022. – pp. 471–478
6. Yang K., Schot J., & Truffer B. Shaping the directionality of sustainability transitions: The diverging development patterns of solar photovoltaics in two Chinese provinces. *Regional Studies*, Vol. 56 (5), 2022. – pp. 751–769
7. Rizzo C., Guido G., Pino G., Pirotti T., & Anzilli L. A fuzzy expert system for sustainable local development. *Regional Studies*, Vol. 56 (5), 2022. – pp. 808–817
8. Foroudi P., Marvi R., Cuomo M.T., and D'Amato A. Sustainable Development Goals in a regional context: conceptualising, measuring and managing residents' perceptions. *Regional Studies*, Jul, 2024. – 16 pages. DOI: 10.1080/00343404.2024.2373871
9. Industrial Policy for the Sustainable Development Goals: Increasing the Private Sector's contribution. OECD Publishing, Paris, 2021. – 196 pages.
10. Wilson, G. K. *Business and Politics. A Comparative Introduction.* — N. J. : Chatham House Publishers, Inc. Chatham, 1990

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114